RAQAMLI MUHITDA O‘QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING G‘OYAVIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Salimov Ma’ruf Eshdavlat o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi
tel: +99895-024-42-95 E-mail: smarufe1995@gamil.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23522897

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, vatanparvarlik hislarini tarbiyalash asnosida bevosita bu tuyg‘ularini va e’tiqodini uyg‘otishning g‘oyaviy asoslari, bu borada yurtimiz maktablari hamda jamoat tashkilotlari bilan olib borilayotgan hamkorligini tashkil etish faoliyati haqida fikr yuritilgan. Haqiqiy vatanparvar o‘quvchi-yoshlar bilishi lozim bo‘lgan tarbiyaviy fazilatlarga izoh berilgan.*
Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, globallashuv, harbiy burch, milliy armiya, milliy manfaat, an’ana, qadriyat, vatanni himoya qilish.*

Yosh avlodning vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish va amalga oshirish muammosi hamma zamonlarda dolzarb ahamiyat kasb etgan. Vatanning kelajagini belgilash, taraqqiyotda yuksalish bevosita yosh avlodning Vatanni qanchalik sevishi, uni himoya qilishi va uning manfaatlari yo‘lida fido bo‘la olishiga bog‘liqdir.

Shu sabab vatanparvarlik va uni o‘stirish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan, sohaga doir faoliyat ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Biroq zamon, tuzum, avlodlar dunyoqarashi o‘zgargani, ilgarilagani sari vatanparvarlik borasidagi harakatlarga ham yangicha ruh bag‘ishlanishi talab etiladi.

Avvalo, vatanparvarlik degan tushunchaga aniqlik kiritib olsak. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida vatanni suymakni yaxshi xulqlar sirasiga kiritib, quyidagicha ta’riflaydi: “Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo‘lub, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar”.

Bu ta’rifdan anglashiladiki, inson o‘z farog‘ati uchun ham “tug‘ulgan, o‘sgan yerini” nafaqat sevmog‘i, balki himoya qilmog‘i ham zarur bo‘ladi. Shu o‘rinda biz fikr yuritayotgan vatanparvarlik tushunchasi qamrovi harbiy vatanparvarlik darajasiga qadar kengayadi. Bu istiloh orqali inson nafaqat o‘zi ma’nan hamda moddiyatan birlashgan makonni sevishi, balki uning davlat chegarasi, hududi

daxlsizligi va bo‘linmasligi yo‘lida hissa qo‘shishi, jonini fido etishga ham tayyorligi anglashiladi.

Sobiq ittifoq davrida harbiy vatanparvarlik tushunchasi siyosiy qarashlar asosiga qurilgan, vatan sifatida SSR, aniqroq qilib aytganda, Rossiya manfaatlari ustuvor ko‘rilgan. “Hamma narsa Rossiya uchun” yashirin g‘oyasi singdirilgan. Shu nuqtayi nazardan ayrim olimlar harbiy vatanparvarlik tushunchasini axloqiy tarbiya qamrovida izohlasalar, ayrimlar g‘oyaviy-siyosiy tarbiya doirasida izohlaganlar.

Bizning fikrimizcha, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, unda siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar to‘la qamrab olinishi kerak.

Chunki bugungi kunda globallashuv fonida g‘arbcha andoza asosida madaniy unifikatsiyalash, turli xalqlarning rang-barang madaniyatini inkor etish asnosida yagona jahon madaniyatini shakllantirishga bo‘lgan harakatlar, yoshlarni bir qolipga tushirish siyosati hamda turli yot va buzg‘unchi g‘oyalardan asrash bizdan ayni sohada tizimli ishlar olib borishni talab etmoqda. Yosh avlodning Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarish, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalash, bu borada muayyan konsepsion harakatni tashkil etish orqaligina biz yuqoridagi muammolarni hal etishimiz mumkin. Shu bilan birga, bu borada davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatini tashkil etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashi yig‘ilishlaridagi nutqlarida va 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo‘llagan tabriklarida vatanparvarlik hamda harbiy-vatanparvarlik mavzusiga alohida urg‘u berilganligi tilga olinayotgan mavzuning muhimligini yana bir bor isbotlaydi.

Bugungi kunda oiladagi tarbiya muhitining susayib borayotganligi, ota-onalar o‘zlari sezmagan holda farzand tarbiyasini maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari va maktab o‘qituvchilariga yuklab qo‘yayotganligi asosiy kamchiliklardan biri bo‘lmoqda. Yosh bolalar asosiy tarbiya ozuqasini o‘zlarining ota-onasi yoki bobo-buvilari, amaki-tog‘alaridan olmasliklari ham yoshlarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, yoshlarning ma’naviy bo‘shlig‘i milliy qadriyatlar urf-odatlar orqali shakllanish o‘rniga, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli rang-barang materiallar, foto va videolar, insonning ongiga ta’sir o‘tkazuvchi virtual o‘yinlar orqali to‘ldirilmoqda. Bir qarashda bu muammoga yechim topish osondek ko‘rinadi, ya’ni internet saytlari ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardagi xabarlar va ma’lumotlarni to‘liq filtrlashning iloji yo‘q. Yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalashning usullaridan biri sifatida ota-onalarning farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishi, qayg‘urishi kerakligi va shu orqali vataniga muhabbat tuyg‘usini

paydo qilish, vatanparvarlik fikrlarni shakllantirishni ko‘rsatish mumkin. Buning uchun ommaviy axborot vositalarida g‘oyaviy-mafkuraviy immunitet ko‘rsatuvlarini efirga uzatish va ota-onalarga farzand tarbiyasini o‘rgatish bo‘yicha o‘quv markazlarini tashkil etish va maktablarda o‘quvchilarning uyali aloqalardan foydalanmaslik rejimi, ya’ni dars boshlanishidan oldin o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning uyali aloqa vositalarini yig‘ib olib, oxirgi dars soati tugaganidan so‘ng qaytarib berish, o‘zbek tarixi, o‘zbek ma’naviy qadriyatlari darslarini ko‘paytirish va turli xil metod, usullar orqali qiziqarli qilib o‘tish, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini faqat 10-11-sinf o‘qvchilariga emas, balki 8-sinfdan boshlab o‘qitish, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidagi ma’lumotlarni yangilash va boshqa qiziqarli ma’lumotlarni ko‘paytirish hamda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidagi amaliy darslarni ham ko‘paytirish, yoshlarni vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik sifatlarini paydo bo‘lishi harbiy kasbiga bo‘lgan qiziqishning paydo bo‘lishiga, ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авлоний А. Танланган асарлар. 2 томлик. – Тошкент: Маънавият, 1998.
2. Негматов Б. Ўзбекистонда ҳарбий ишлар тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010.
3. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Тошкент: Ўзбекистон, 2013.
4. Умаров Э., Абдуллаев М. Маънавият асослари. – Тошкент: Шарқ, 2005.
5. Bumber G. The Great Voghuls. – London, 1985.